

## X. SULTONNING “TARJIMAYI HOL” ASARI XUSUSIDA

**Abdullayeva Gulmira**

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13902408>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xayriddin Sultonning “Tarjimayi hol” asari orqali ayol matonati va shaxsiy identitet mavzulari tahlil qilinadi. Asardagi qahramonlar orqali urush va ijtimoiy adolatsizliklar muammolari ko'tariladi, bu esa o'quvchilarga ayollarning sabr, matonat va jasoratini namoyish etadi.

**Kalit so'zlar:** matonat, ijtimoiy identitet, shaxsiy identitet, milliy an'analar, oila qadriyatlari, jasorat.

Ayol matonati, bardoshini xalqimiz doimo ulug'lab kelgan, asarlarda ularni bosh qahramon obrazi qilib olish, XX asr nasrida ancha sezilarli ko'zga tashlana boshladi. Mumtoz adabiyotlarda yor jamoli, go'zalligi ulug'langan bo'lsa, bugungi kundagi asarlarda ularni qahramon, o'qimishli, mehnatsevar, ojiza, sabrli, mushfiq yoki aksincha, makkora, fitnachi kabi real obrazlarda tasvirlash asarlarning hayotiyligini ta'minlashga xizmat qiladigan jihatlardan biri bo'ldi. Xayriddin Sultonning “Tarjimayi hol” asarini ham ayol matonatiga qo'yilgan haykal desak mubolag'a bo'lmaydi.

Asar qahramoni Nisoxon Axmedovaning “tarjimayi holi”da boshiga tushgan qiyinchiliklar juda ishonarli tarzda aks ettirilgan. Umuman olganda, Xayriddin Sulton asarlarida oddiy insonlarining hayot tarzi, ijtimoiy holati, bugungi kun muammolari qahramon tili bilan bayon etiladi. Ijodkor odatda asar oxirida o'zi xulosa bermaydi, o'quvchining o'ziga havola qiladi, bu esa asarlariga qiziqishni orttiradi.

Adibning “Tarjimayi hol” hikoyasi ham “ bor -yo'g'i uch sinf o'qigan” ayol tilidan hikoya qilingan. Adibning asarlarida shaxsiy, milliy va ijtimoiy identitetga duch kelamiz. Identitet - bu shaxs yoki guruhning o'zini qanday anglashini, boshqalarga qanday ko'rinishini ifodalovchi tushuncha. Identitet tushunchasi shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, tajribalari va o'z-o'zini anglash jarayoni, uning kimligini, qiziqishlarini va hayotiy maqsadlarini o'z ichiga oladi. Unda bir guruh yoki millatga mansublik hissi aks etadi. Bu esa tarix, til, madaniyat va urf-odatlar orqali shakllanadi. Xayriddin Sulton asarlarida O'zbekistonning tarixiy va madaniy an'analari, urf-odatlari keng yoritilgan. Qahramonlar vositasida xalqning ma'naviy qiyofasi, urush va tinchlik davrlaridagi kurashlari aks ettiriladi. Ularning ichki kechinmalari, kurashlari, his-tuyg'ulari milliy va shaxsiy identitetni shakllantirishga yordam beradi. O'zbek xalqining ijtimoiy qiyinchiliklari, adolatsizlik va tengsizlik kabi muammolarni ko'tarish orqali

milliy ruhni o'rganadi. Xayriddin Sulton asarlaridagi bu konseptlar o'quvchilarga milliy o'zlik va madaniyatni chuqurroq anglash imkonini beradi. "Tarjimayi hol" hikoyasida ham qahramonlar taqdiri, voqealarning izchilligi asardagi identitetni namoyon qiladi. Quloqlashtirish siyosati qahramonlar taqdirini tubdan o'zgartirib yuboradi. Otasi rahmatli "quloq qilinib, sho'roga haqsiz bo'lgandan keyin" mol-mulki musodara qilinib Nisoxonlar oilasida qiyinchiliklar boshlanadi. "Mushtday boshi bilan sho'ro oshxonasini supurgan, achchiq qismatdan qochib borar ekan, izg'irinda pishqirgan daryoda chirpirak bo'lib oqib, bir o'limdan qolgan, ilon, chayonlar, kalamush kaltakesaklar yugurib yurgan to'qayzorda yerto'la qazib kun kechirgan, ot o'rniga o'zining bo'yniga arqon solib omoch tortgan, oy yorug'ida yer chopib umrida ketmon tegmagan tosh tuproqni tozalab dehqonchilik qilgan, daxshatli urushda arslondek akasidan ayrilgan, uyidagi bor-budini davlat frontga deb tortib olgan, Farhod GESi qurilishida yelkasida tuproq tashib umrtqasi ezilgan, goh chaylada, yerto'lada, birovlarining ijara uyida yashagan, goh bir qarindoshining og'ilini o'ziga boshpana qilgan, goh dalada gektarchilik qilib kun ko'rgan, goh azim shaharda ahvoli tang bo'lib, nonga ham pul topa olmay qolgan, dalada beda o'rib yurib bola tuqan, sakkizta farzandini boqib odam qilgan, kamqonlik tufayli boshini yostiقدan ko'tarishga ham majoli qolmagan, o'zining o'ttiz olti yashar o'g'lini mashina urib o'ldirgan bir ayol..."[1;45] Mana shunday qiyinchiliklar ayoldagi sabr, iroda, matonat kabi shaxsiy identitetlarni hosil qilgan.

Nisoxonning hayoti, o'zining sabri va matonati orqali shaxsiy identitetini shakllantiradi. U urush va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashishda kuchli iroda ko'rsatadi. Asarda uning ota-onasi va oilasi ham qahramon sifatida tasvirlangan, bu esa oilaviy qadriyatlar va jonkuyarlikni ko'rsatadi. Nisoxonning otasi, Ahmadxo'ja baqqol timsolida, bardoshli va mehnatsevar inson sifatida ko'rsatiladi. Uning hayotiy tajribalari, qiyinchiliklari va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashi, uning qizi, Nisoxon, uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Nisoxonning "Otam rahmatli g'ayrati ichiga sig'magan kishi edi. "Ishlagandan keyin yo ish o'lishi kerak, yo odam", - deb birpas hol-jonimizga qo'ymasdi..."[2;578] degan gaplarida uning mehnatsevarligini ko'rishimiz mumkin. Akasining o'limidan so'ng "Otam ichidan kuydi, lekin kuyganini bir insonga bildirmadi, "O'zi berdi - o'zi oldi", deb, yanayam ko'proq ishlay boshlagan"ligida uning o'zbek otalariga xos metin iroda, oilasi uchun tog' kabi tayanch, fidokorlikni ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda urush vaqtida onalarimizdan ziyoda otalarimizga ham juda og'ir bo'lganligi, ular faqat o'zlari uchun emas oilasi uchun ham javobgarligi va buni astoydil his qilib, bunga



chidab yashaganligini G`afur G`ulomning “Sog`inish” she`rida quyidagi misralarda ko`rishimiz mumkin:

“Ne qilsa otamen me`ros hissiyot...

Jondan sog`inishga uning haqqi bor.”[3;89]

Asarda tarixiy konseptga xos bo`lgan o`rinlarni ham kuzatamiz. Masalan, otasining quloqlashtirish siyosati oqibatida mol-mukidan ayrilib tez-tez “Gado qilding, sho`ro, ado qilding, sho`ro!” deb aytgan xitobini misol qilsak bo`ladi.

Xayriddin Sulton asarlarida tarixiy voqealar va shaxsiy hayot bir-biriga bog`langan. Quloqlashtirish siyosati, Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davrda ayollarning hayoti murakkab holatga aylanadi. Bu davr ayollarining yig`ma obrazi Nisoxon, Ishqinisa buvi, Sidiqa aya kabi timsollar orqali ifodalanadi. Ularning har biri o`zining kurashlari, qiyinchiliklari va jasorati bilan jamiyatdagi o`z o`rnini topadi.

Xulosa qilib aytganda, Xayriddin Sulton asarlarida ayol matonati, jasorati va o`zligini anglash mavzusi muhim ahamiyatga ega. Nisoxon Axmedova kabi qahramonlar o`z hayotlaridagi qiyinchiliklarga qaramay, umid va ishonch bilan harakat qiladilar. Bu asarlar o`quvchilarga ayollarning ijtimoiy roli, matonati va kurashi orqali milliy o`zlikni anglash imkonini beradi. Shunday qilib, Xayriddin Sulton asarlarida ayol matonati xalqimizning tarixiy xotirasida alohida o`rin tutadi.

#### **Adabiyotlar ro`yxati:**

1. Sizdiqboyeva N., To`ychiyeva A. Ramziy obrazlar va epik konsepsiya// Til va dabiyot ta`limi. №2. 2007. – 26-28.
2. Dilmurodova N. Yangilanish estetikasi//Jahon adabiyoti. 2009. №4. – 150-153 b.
3. Do`stmuhammad X. Ma`naviy tarsaki og`rig`i. Suhbat. A.Yo`ldosh suhbatlashgan//Yoshlik. 2008. №8. – 5-10 b.
4. Xayriddin Sulton qissalarida badiiy tasvir va syujet (cyberleninka.ru)